

ABDULHAMID CHO'LPONNING "ADABIYOT NADUR?" MAQOLASIGA SHARH

Olimova Shaxruza Obidjon qizi

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Cho'lponning adabiy tanqidiy merosi va uning milliy ong shakllanishidagi o'rni tahlil etilgan. O'zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida milliy ong va ma'naviyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jarayonda Cho'lpon kabi ijodkorlarning adabiy_tanqidiy faoliyati o'zbek adabiyoti yo'nalishining aniqlanishida beqiyos va takrorlanmas o'rinni oldi. U nafaqat shoir va yozuvchi, balki adabiyotshunos munaqqid sifatida ham ijod qilib milliy adabiy tafakkurining shakllanishiga katta hissa qo'shdi.

Kalit so'zlar: adabiyot, Cho'lpon, munaqqid, milliy ong, millatparvar shoir.

O'zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida milliy ong va ma'naviyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XX asr boshlarida xalqning ma'rifatga intilishi kuchaygan davrda adabiyot nafaqat estetik zavq bag'ishlovchi san'at turi balki millatni uyg'otuvchi, mustamlakachilik zulmatidan qutqarishga xizmat qiyuvchi kuch sifatida maydonga chiqdi. Biroq shunday bir zamonlar keldiki, milat adabiyoti istiqboli nuragudek ahvolotni boshdan kechirdi. Shunday mushkul zamonda uyg'onish davri ustunlari-jadidlar harakatidek bir kuch oyoqqa turdi. Shu jarayonda Cho'lpon kabi ijodkorlarning adabiy_tanqidiy faoliyati o'zbek adabiyoti yo'nalishining aniqlanishida beqiyos va takrorlanmas o'rinni oldi. U nafaqat shoir va yozuvchi, balki adabiyotshunos munaqqid sifatida ham ijod qilib milliy adabiy tafakkurining shakllanishiga katta hissa qo'shdi.

O'zbekning bu buyuk chinori adabiyotga ta'rif berar ekan, avvalo, ritorika uslubida: Adabiyot nadur? - deya so'roqlanadi. So'roq bilan yog'rilgan javob

quyidagichadur: Adabiyot millat ko'ngli maxzanining kaliti va shu maxzanning tubida har xil tusda turli-tuman jilolanadigan, hislarning anglanishi ila shu maxzanga olib boradigan yo'ldagi bir yorug'likdir.

Ayonki, inson hayotdagi goh shodlikdan, goh azob-u uqubatlardan ko'z yosh oladi. Bu kechmishlarni dilda saqlamay qog'ozga soladi, chunki uni jon quloq-la eshitguchi topilmaydi, topilganda ham u qadar his qila olmas. Biroq adabiyot tili bilan har qanday ahvolotni ta'sir qildirish mumkin deya o'zining hayotidan bir misol keltirib o'tadi:

Gullar bila pok qayg'uli mahzun boqurdi

Ko'z yoshlarimiz to'xtamay tun-kun oqirdi...

Gar menga bu ayriliqni maktuba-la, adabiyot so'zi-la his qildirmaganlarida edi, uning vafoti uchun alamni ulardek his qila olmas edim deydi.

Javlon urib harakat qilayotgan vujudimiz uchun suv-u havo ne qadar zarur bo'lsa, qalbimizda mudroq bosgan tuyg'ularni uyg'otish, tubanlashib borayotgan "men"ni sindirish, qora bulut qoplagan bu ko'ngil uyini yoritmoq uchun ham adabiyot zarurdir. Millatparvar shoir o'zi aytganidek: Adabiyot yashasa, millat yashaydi".

Xususan, adabiyoti bo'lmagan, uning istiqboli uchun qayg'urmaydigan biror adib bo'lmasa, u millat oxir-oqibat tanazzulga yuz tutishi muqarrar.

Bu maqolada bir tanqid ruhi ham yotgan bo'lib, yozguchi millatni adabiyot o'qimoqqa, ko'ngil yerlarini adabiyot so'zi bilan sug'ormoqqa chaqirib, taasufki, o'zimizni emas, Ovro'po-Yevropa xalqlarida bo'ladigan adabiyot kechalarini ta'kidlab ketadi. E'tiborli jihati shundaki, biznikilar ilm yo'lida emas, istiqbol yo'lida emas, balki nafs, aysh-ishrat, shon-shuhrat, zarbof to'nlar, xushomadgo'yliklar, laganbardorliklar qurboni bo'lib adabiyotni tamomila unutish ostonasida turibdilar. Basharti ruh, aql emas faqat jism bezantirilganidan bir ishning boshini tutmoq uchun o'nglanganimizda ishni emas, fikrlarni topa olmaymiz, sababi millat adabiyot umumiylarini o'qib anglamoqdan ko'p yiroqda.

Oqsoq yuraklarni tiklamoq uchun, qaqragan ko'ngillarni sug'ormoq uchun, bo'shagan aqlni to'ldirmoq uchun adabiyot deb atalmish so'zning har bir hijosini qon-

qonimizga singdirmoq uchun, foniylilik nafasi bilan to'lgan bu ruhiyatni boqiylik amaliga o'rgatmoq uchun, qorani oqdan ajratmoq uchun ham adabiyot g'oyat kerakdir. U ko'ngillarimizni tozalaydirg'an buloq suvi bo'lsa, bu buloq bo'lsa bizga to'laligicha zarurdir.

Adabiyot nadur degan so'rog'iga esa millatning har tomonlama o'zligini anglatadigan, anglatgandan so'ng esa uni tamomila o'zgartiradigan bir kuch deya javob olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon "Adabiyot nadir". -Toshkent : "Cho'lpon", 1994 -240 b.
2. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon. Tanlangan asarlar. 4jildlik:
-Toshkent: Akademnashr, 2016. -266 b 5.
3. Ozod Sharafiddinov "Cho'lponni anglash", -T.:Xazina, 1994.